

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



BIZ SALAFLAR IZDOSHLARIMIZ

ЖИЗЗАХ-2023

**Ilmiy – amaliy anjuman
materiallari**

(2-kitob, 1,3,4,5 - shu'balar)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

“BIZ SALAFLAR IZDOSHLARIMIZ”

mavzusidagi Ilmiy – amaliy anjuman materiallari

(2-kitob, 1,3,4,5 - shu’balar)



ЖИЗЗАХ-2023

YŷK: 821.512.1993KBK: 83.3(5ŷ)

Mazkur to'plam Alisher Navoiyning 582 yilligi hamda Z.M.Boburning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 25- yanvar № PK-20 "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash" to'g'risidagi Qarori bilan tashkillashtirilgan

"BIZ SALAFLAR IZDOSHLARIMIZ"

mavzusidagi Ilmiy-amaliy anjumanining 1,3,4,5 shu'ba materiallari asosida tayyorlandi.

To'plam adabiyotshunos olimlar, izlanish olib borayotgan yosh tadqiqotchilar va o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari hamda magistrlar uchun mo'ljallangan.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

JDFU dotsenti, f.f.doktori

JDFU dotsenti, f.f.f.(PhD)

JDFU dotsent v/b, f.f.f.d (PhD)

Soatova Nodira Isomitdinovna

Salimova Dilnavoz Akmalovna

Turopova Parizod Shavkat qizi

Bosh muharrir:

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani, f.f.nomzodi, dotsent

Soyipov Sunatulla Normatovich

Mas'ul muharrir:

JDFU dotsenti, f.f.doktori

O'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi

kafedrasi mudiri v.b., f.f. f.d.(PhD)

Soatova Nodira Isomitdinovna

Jo'rayev Murodilla Alishboyevich

Taqrizchilar:

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi

mudiri, f.f. doktori, professor

Usmonjon Qosimov

O'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi

kafedrasi dotsenti, f.f.nomzodi

Karimova Yulduz Akulovna

Ushbu to'plam Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti Ilmiy Kengashining 2023- yil 6-fevraldagi 7-sonli yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-1992-5-4

© "JDFU" 2023

favqulodda hodisalarga mahliyolik, voqeanavislik ustunlik qilib ketgan o‘rinlar uchraydi. Nima bo‘lganda ham, ayni shunday romantik ruhdagi yoshlar uchun ham ibrat, ham saboq bo‘la oladigan qahramonlarga ehtiyoj, tashnalik nihoyatda katta edi.

Zulfiya Qurolboy qizi asarlaridagi qahramonlar hayotimizda, yonimizda yurganday go‘yo. Biroq ularning ruhiyatini yaxshi bilmaganimiz sabab, ularning xayol og‘ushiga kirib bora olmaymiz. Ular o‘zlari uchun to‘g‘ri bo‘lgan yo‘lni tanlashadi va bu y o‘lga olg‘a qarab borishadi. Shu sabab asarda ifoda etilganidek o‘zlarining niyatlariga yetisha oladilar.

Xullas, romanda Zulfiya Qurolboy qizi o‘z obrazlarini hech bir qahramonlarga o‘xshamagan holatlarda namoyon qiladi. Ularning ruhiyatiga chuqur kirib borib, xarakterini yoritishga harakat qilgan. Shu sabab asarni o‘qigan o‘quvchi bu obrazlarning qalb tug‘yonlariga befarq qaray olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Умуров Х. Адабиёт назарияси. – Т.: Шарқ, 2002.
2. www.ziyouz.com. Mashaqqatlar girdobi.
3. Qozoqboy Yo‘ldosh. Roman va bugungi o‘zbek romanchiligi <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/1006>)

MUSTAQIL MUTOLAA VA ADABIY TAHLIL

*Mahliyo Mamitova,
JDPU magistranti*

Ilmiy rahbar: f.f.d., dotsent Surayyo Eshonqulova

Adabiy asar yaratilib kitob holiga kelgunicha u muallifning, ijodkorning xos, shaxsiy mulki bo‘ladi. Kitobxon hukmiga havola etilgan kundan boshlab, u ijodkorning shaxsiy mulki maqomidan chiqadi. Endi u shu mulkdan bahramand bo‘ladigan, uni o‘qib o‘ziga tegishli xulosalar chiqarib, muayyan mulohazalar yuritish imkonini beradigan ijtimoiy obyektga aylanadi. Shunday ekan, mana shu “ijtimoiy obyekt”ning mohiyati nimadan iborat? Nima uchun barcha “ijtimoiy obyekt”lar jamiyat a‘zolari o‘rtasida bir xil mavqe va obro‘ qozonmaydi? Ularning zamondoshlarga, xususan, yosh avlodning ongu shuuriga ijobiy ma‘nodagi “daxl qilishi”ga nimalar xalaqit beradi? O‘qilmayotgan kitob haqida faqat yoshlar, kitobxonlar emas, yozuvchi, shoir, dramaturgning o‘zi ham, yozuvchi va kitobxon muloqotini ta‘minlash uchun safarbar qilingan tanqidchi, murabbiy, o‘qituvchi, ota-onalar ham bu haqda o‘ylab ko‘rishi kerak emasmikan?! Gap shundaki, haqiqiy asarning badiiyligi, demakki, uning zamonaviyligi, haqqoniyligi, odam va olam haqidagi haqiqatlarni aks ettirib berish, insonlar ko‘nglidagi rang-barang tuyg‘ular bilan uyg‘unlik darajasi, o‘zbekona so‘zning ohor va ifodasi mavjud ehtiyojlarga mos va munosib kelishi kerak. Bu ijodkorning “badiiy mahorat” deb nomlanadigan mavqeyiga bog‘liq. Shu nuqtayi



nazardan qaraladigan bo'lsa, biz adabiyotning qaysi yo'ldan yurishini, qayoqqa qarab boshlashini ayni mana shunday oliyqadr namunalarning ko'p va ozligi bilan o'lchashga majburiyat sezamiz.

Zamonaviy o'zbek adabiy jarayonida realizm pozitsiyasi ancha kuchli. Misol tariqasida Abduqayum Yo'ldoshning "Bankir", "Puankare", Hakim Sattoriyning "Sog'inch", Zulfiya Mizbaxning "So'fito'rg'ay", Shodmon Otabekning "Agar oshiqligim aytsam..." kabi jamoatchilik e'tiboriga hamda tanqidchilar e'tirofiga sazovor bo'lgan asarlarini keltirish mumkin. Fikrimizcha, realizm badiiy metod sifatida kelajakda ham asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi. Binobarin, adiblarimiz hali bu metodning ko'plab usul va vositalarini o'zlashtirishlari lozim. Turgan gapki, bu yangilangan realizm bo'ladi, deb aytishga asosimiz bor. Chunki hayotiylik badiiyati mavjud voqelik tasvirini zamonaviy vositalar bilan berilishini talab etadi. Ehtimol, bugun o'zbek adabiyotida ildiz otgan boshqa tendensiya neorealizmning vujudga kelishidan nishonadir. Biz bugungi qator asarlarda kuzatilayotgan hodisa – realizm va modernizm uslubining simbiozini nazarda tutmoqdamiz.

O'zbek adabiyotidagi postmodernizm unsurlari haqida so'z borar ekan, aytish joizki, bu hodisa o'zbek adabiyotidagi milliy chizgilar va o'zbekona matn qurilishidagi azaliy ohangdorlik xususiyatlarini o'zlashtirgan bo'lib, poetik-uslubiy yo'nalishi nuqtayi nazaridan g'arb va rus postmodernizmidan tubdan farq qiladi. Ushbu yo'nalishga Omon Muxtorning "Ikki qiyofa", Isajon Sultonning "Munojot", No'mon Rahimjonovning "Jimjit jolalar" qissalarini misol qilib keltirish mumkin. Zamonaviy adiblarning jahon adabiyotida allaqachon urfdan chiqqan postmodernizmga moyilligini oqlaydigan yana bir ijobiy belgilardan biri postmodernchilar bosh prinsip deb hisoblangan prinsip – "asardan muallif shaxsini olib tashlash" prinsipini pisand qilmaslikdir.


Fikrimizcha, zamonaviy o'zbek nasrida quyidagi postmodernistik uslub belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin: 1) o'zbek mumtoz adabiyotidan "iqtibos"lar keltirish; 2) qahramonning "shizoanaliz"⁴ usuli bilan sun'iy hayajon asosida ochib berilgan ruhiy holatini oldingi o'ringa chiqarish; 3) muallifning falsafiy pozitsiyasi aks etgan ramzlar kombinatsiyasini (kodini) qurish; 4) olamni birlamchi ko'rinishda qabul qilish; 5) janr eksperimentlari; 6) borliqning o'ziga xos modelini yaratish; 7) zamonaviylikdan chekinib, o'tmish "izlari" tushgan ifoda tilini yaratish [].

Bu adabiy hodisalarni hali anglab yetishimiz zarur. Biroq shuni qayd etish lozimki, o'zbek yozuvchilari izlanmoqdalar, ifoda etish yo'llari hamda vositalarini kengaytirib, tinmay tajribalar qilmoqdalar. Aniqrog'i, bu borada postmodernizm haqida metod, yo'nalish yoki oqim sifatida emas, balki realistik asarda ko'ringan unsur yoki asar yaratishdagi badiiy usul sifatida nutq ma'qulroqdir.

Hozirgi adabiy jarayonda adabiyotshunos olimlarning o'rni beqiyos. Quyida bir necha olimlarning fikrlarini keltirib o'tamiz:

Hakimjon Karimov ilgari surgan paradigmal in'ikos nazariyasiga va ijtimoiy-madaniy hamda adabiy tafakkurning rivojlanishida ong kategoriyasining rolga asoslanadi. Tadqiqotchi yozish uslubi rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini nasrning janr prinsipiga asosan bo'linishidan kelib chiqqan holda ko'rsatib o'tadi:

- 1) adabiyotda g'oya va mavzu maydonining kengayishi;




- 2) ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy, oilaviy masalalarga e'tiborning kuchayishi;
- 3) insonparvarlik mazmuni va psixologizmning chuqurlashuvi;
- 4) o'zbek xalqining o'zligini tanishi va mentaliteti masalalariga murojaat etilishi;
- 5) hayot mazmunini falsafiy mushohada etish [2].

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Insonda tafakkur bo'lganligi va tafakkur bilan chambarchas nutq bo'lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi, shu sababli u ongli mavjudotdir. Inson o'z atrofidagi olamda bo'lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi. Ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi. Tafakkur atrofidagi olamni bilish qurolidir va inson amaliy faoliyatini vujudga kelishi uchun shartdir. Biron narsa to'g'risida tafakkur qilish jarayonida fikr paydo bo'ladi, bu fikrlar insonning ongida hukm va tushunchalar shaklini oladi. Tafakkurning bilish faoliyatidagi roli avvalo bizning idroklarimiz va fikrlarimizning voqelikka qanchalik muvofiq bo'lishini, bo'lar haqiqat yoki xato, chinmi yoki yolg'on ekanligini belgilashda o'z ifodasini topadi.

Bunday tafakkur qilish eng oddiy amaliy voqelikda namoyon bo'ladi. Voqelikning sezgilardagi va idrokidagi in'ikosning o'zi chinakam bilim bo'ladi. Masalan: biz quyoshning har kuni sharqdan chiqib, g'arbga botayotganini hammamiz ko'ramiz (idrok qilamiz). Biz erni qimirlamay turganini, asrlar davomida qilgan fikriy faoliyati natijasidagina uzoq davom qilgan kuzatishlar o'tkazish va matematika yo'li bilan tadqiqotlar qilish natijasidagina haqiqatda quyosh er atrofida aylanmasdan, balki er o'z o'qi atrofi va quyosh atrofida aylanayotganligini aniqladik. Demak, quyoshning harakati to'g'risidagi bizning bevosita idrokimiz voqelikka to'g'ri kelmas ekan. Voqelikni to'g'ri aks etishi tafakkur bilan aniqlanadi. Yuqoriroq bosqichlarda bunday fikrlash tafakkur jarayonlarida hosil bo'lgan hukmlar va tushunchalarning chinligini yoki chin emasligini aniqlashda ifodalanadi. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni ular o'rtasidagi bog'lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo'l bilan aks ettirishga aytiladi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va to'laroq aks etadi.

Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo'lmagan narsa yoki hodisalarni, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog'lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Masalan: bizga ma'lumki, agar yorug'lik nuri shisha prizma orqali o'tkazilsa bu nur spektorni yetti rangiga ajralib ketadi. Bu ranglarni biz idrok qilamiz (ko'zimiz bilan ko'ramiz). Lekin fizikadan bizga shu narsa aniqki, bu nurlardan bo'lak yana boshqa nurlar ham bor. Bu nurlar infraqizil, ultrabinafsha nurlar deb ataladi. Bu nurlarni biz ko'rmaymiz. Bunday nurlarni borligi tafakkur yordami bilan kashf qilingan. Biz tasavvur qilishimiz mumkin bo'lgan ko'pgina hodisalar bor. Biz bu hodisalar to'g'risida faqat fikr yurita olamiz. Tafakkur voqelikni umumlashtirib aks ettirishdir. Biz ayrim narsalarni va hodisalarni, masalan, alohida stolni yoki stulni idrok qilamiz, tasavvur qilamiz, ammo umuman stol va stul to'g'risida fikrlashimiz mumkin.

Narsa yoki hodisalar to'g'risidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlar tafakkur yordami bilan ochiladi. Siz qalamni barmoqlaringiz bilan 20 sm balandda




ushlab turibsiz. Barmoqlaringizni ochib yuborsangiz qalam stol ustiga tushadi, uning taqillagani eshitaladi. Biz bu hodisalarni birin-ketin idrok qilamiz va ularni xuddi shu tartibda tasavvur qilishimiz mumkin. Lekin biz bunda hodisalarni ma'lum vaqt ichida birin-ketin sodir bo'lishini idrok qilamiz, xolos. Ammo ayni vaqtda tafakkur yordami bilan bu hodisalarning bir-biriga qonuniy bog'lanishdagi chuqurroq sabablar va bundan kelib chiqadigan natijalar ochiladi.

Biz hodisalarning birin-ketin o'tayotganligini qayd qilib qolavermaymiz, balki birinchi hodisa bo'lgani uchun ikkinchi hodisa ro'y berdi, undan keyingina hodisalarning har qaysisi (masalan, tovush) oldindan hodisa ro'y berganligi uchun (qalam stolga urilgani uchun) sodir bo'ladi, deb aniq qilib aytamiz va oldingi hodisaning ro'y berganligi keyingi hodisaning muqarrar keltirib chiqarganligini anglaymiz. Bu hodisalar ularning ma'lum bir vaqt ichida birin-ketin sodir bo'lganligini idrok qilganimizdan tashqari ular o'rtasida sabab - natija tariqasida bog'lanishi, ya'ni qonuniy bog'lanish bor, deb aniq qilib aytamiz. Biz shu sabab - natija tariqasidagi bog'lanishning o'zini bevosita idrok qila olmaymiz. Uni sezgi organlarimiz vositasi bilan his qila olmaymiz, (ko'rmaymiz, ushlab ko'rmaymiz, eshita olmaymiz) balki shu bog'lanish borligini idrokimizga asoslanib turib fikr qilish yo'li bilan topamiz. So'ngra ayrim hodisalaridagi sabab-natija bog'lanishlari ochilganligiga asoslanib, umumiyashtirish yo'li bilan voqelikning umumiy qonuniyatlarini topib olamiz.

Masalan, bir holda suvning yaxlab qolganligi haroratning pasayganligi (0 dan pastda tushib ketganligi) sabab bo'lgani aniqlangan bo'lsa va bu hodisa boshqa bir qancha hollarni ham aniqlagan bo'lsa, yana shu hollarni umumiyashtirish natijasida "harorat 0 dan past bo'lgani suv hamisha muzlaydi", – degan hukmda ifodalangan qonun topilgan. Hodisalar o'rtasidagi mavjud sabab - natija bog'lanishlarini belgilaganimiz uchun biz hozirgi paytda bizning oldimizda ro'y bermagan hodisalarning yuz berishini oldindan aytib berishimiz mumkin. Masalan: termometrda haroratning 0 dan past tushganligini ko'rishimiz bilan endi suv muzlaydi, deb oldindan ayta olamiz. Oldindan bilish muayyan maqsadni qo'yishga va ana shu maqsadga muvofiq harakat qilishga imkon beradi. Odamlarning hozirgi amaliyoti bizning xilma-xil mehnatimiz natijasini oldindan bilish tufayli mumkin bo'lmoqda. Mehnat faoliyati ayni vaqtda fikrlash faoliyati hamdir. Tafakkur yo'li bilan aniqlangan abstrakt - nazariy qoidalar inson amaliyotida sinovdan o'tkaziladi, (tasdiqlanadi yoki rad qilinadi), voqelikni xuddi shu yo'l bilan eng to'g'ri va aniq bilib olinadi.

Tafakkur ongning voqelikni eng aniq, chuqur, to'liq, umumiyashtirib va bevosita aks ettirishga (bilishga) qaratilgan faoliyatdir, asosan narsalarni bevosita sezishimiz va idrok qilishimiz mumkin bo'lmagan bog'lanishlar va munosabatlarning aks etishidir. Fikrlar, hukmlar va tushunchalar dastlab idrok va tasavvur asosida vujudga keladi. Bu fikrlar xotirada mustahkamlanadi va so'ngra tafakkurning yuksakroq va murakkabroq jarayonlari uchun material (asos) bo'lib qoladi. Har bir kishi tevarak - atrofdagi olamni bevosita bilish bilan mashg'ul bo'lganida fikr yuritmay, balki shu bilan birga u harakat qilayotganida ham boshqa kishilar nutq orqali aloqa qilayotganida, o'z fikrini boshqa kishilarga bildirayotganida hamda boshqa kishilardan tayyor fikr va bilimlarni olayotganida ham fikr qiladi. Odamning tafakkuri til bilan bevosita bog'langandir. Fikr va muhokamalar, bilish va tajriba til yordami




bilan shakllanadi. Insoniyat jamiyatida odamlar bir - birlari bilan til vositasi orqali fikr almashadilar.

Analiz (tahlil) narsa - buyumlarni, hodisalarni, jarayonni tarkibiy belgilari, elementlariga, qismlariga bo'lish demakdir. Tahlil jarayonida butunning uning qismlariga, uning elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Tahlil obyektlari amalda ajratib bo'lmaydigan elementlarga yoki belgilarga bo'lishda ifodalanishi mumkin. Bu fikriy tahlil, ya'ni fikrda qilinadigan tahlildir. Psixologiyani o'rganayotganimizda har bir psixik hodisani bir-biri bilan taqqoslabgina qolmasdan, balki shu bilan birga tahlil ham qilamiz. O'qish mashg'uloti vaqtida tafakkurning tahlil qilish faoliyati katta o'rin tutadi. Chunonchi, savod o'rgatish, nutqni tahlil qilishdan: gapni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni tovushlarga ajratishdan boshlanadi. Matematik masalani yechish tahlil qilishdan, dastlab bir qancha ma'lum sonlarni, so'ngra esa noma'lum sonlarni topishdan boshlanadi.

X. Karimovning fikricha, mazkur yo'nalishlarning barchasi yozish uslubining realistik va modernistik turiga asoslanadi. Adabiyotshunos olim voqealikning modernistik prinsipda aks ettirilishini o'zbek adabiyotidagi sifat jihatdan yangi hodisa deya ta'kidlaydi. U "totalitar sharoitda mazkur estetik qarashlarni qo'llash imkonsiz edi" [2], – deya obyektiv sabablarni ham, "adabiyotda modernizmning barcha prinsiplari va uslublarini to'la qo'llay oladigan ijodkorlar hali yetishib chiqmagan edi" [2], - deya, subyektiv sabablarni ham ko'rsatib o'tadi. X. Karimov zamonaviy so'z ijodkorlarining eng muvaffaqiyatli tajribalari ramz va majozlarga tayanganini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, u o'zbek adabiyotida "detektiv yo'nalish" paydo bo'lganini va bu ham yangilik ekanini qayd etadi.

Adabiyotshunos olim "Zamonaviy o'zbek adabiyoti uchun muallifning dunyoni his etish konsepsiyalaridagi xilma-xillik, voqelikni anglashning yangicha shakllari paydo bo'lishi hamda adabiy obrazlarni milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan qayta anglash xosdir", – deya xulosa qiladi. Yo'ldosh Solijonov ham o'zining zamonaviy adabiy jarayonlar konsepsiyasini adabiy janrlarning bo'linish prinsipiga asoslangan holda tuzadi. Olimning ta'kidlashicha, zamonaviy o'zbek adabiyoti "... Sharq adabiy an'alarini boyitgan holda jahon adabiyoti tendensiyalarini o'zlashtira boshladi" [4]. Lekin, – deya ta'kidlaydi Y. Solijonov, –jahon adabiyoti an'analari o'zbek badiiy asarlarini yaratishda mustahkam poydevorga aylanib ulgurmadi.

Tafakkurning mazmundorligi va chuqurligi uning kengligi bilan chambarchas bog'langan. Voqelikning eng ko'p sohalarini o'z ichiga olgan, hozirgi vaqtni, uzoq o'tmishni va uzoq kelajakni o'z ichiga olgan tafakkurni biz keng tafakkur deymiz. Odam o'z oldiga yangi vazifalarni qo'yishda o'zi tashabbus ko'rsatib, shu vazifalarni boshqa odamlarning yordamisiz, o'zining alohida yo'llari bilan hal qilaversa, bu odamlarning tafakkuri mustaqil tafakkur bo'ladi. Tafakkurning tanqidiyligi o'zgalarning yoki o'zlarining fikrlarini haqiqatga mos bo'lishi - bo'lmasligi jihatini tekshira bilishda va shu fikrlarga baho bera olishda ifodalanadi. Tafakkurning tezligi qo'yilgan savollarga juda tezlik bilan javob topa olishda namoyon bo'ladi. Fikrning tezligi maktab o'quvchilari uchun muhim ahamiyatga ega. Masalan: ayrim yaxshi o'quvchilarni doskaga chiqarib, ulardan yangi masalani echish talab qilinganda hayajonlanib, butun sinf oldida o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Bu salbiy emotsiyalar



go'yo ularning tafakkurini tormozlab qo'yadi. Fikr juda sekin va tez-tez muvaffaqiyatsiz ishlay boshlaydi. Maktab o'quvchilarning tafakkuri hali juda katta va yetarli foydalanilmayotgan zaxira hamda imkoniyatlarga egadir. Psixologiya va pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri ana shu imkoniyatlarni to'la ochish va ular asosida ta'limni yanada samarali, hamda ijodiy qilishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizaev Sh. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinf uchun darslik. 2-qism. –T.: Sharq, 2015. –B.93-106.
2. Karimov H. O'zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari. <https://fayllar.org/743615.html>
3. Rahmonov N. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1,2-jild. –T.: Fan, 2005.
4. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O'qituvchi, 1996. –B.42.


ABDULLA AHMAD NASRIY ASARLARIDA XARAKTER YARATISH MAHORATI

Dildora Xasanova, JDPU magistranti


Sir-sinoatga to'la tabiatda aql bovar qilmas ajoyib hodisalar va hayratomuz mo'jizalar ro'y berib turishini inkor etib bo'lmaydi. Ammo, badiiy ijod jarayoni o'ziga xos, murakkab ruhiy bir olam. Unda hech kim ertaklardagi singari sehrli xum yo qalpoqcha qudrati bilan bir amallab shoir, yo yozuvchi bo'lib qolmaydi. Chinakam ijod hamisha yuksak badiiy tafakkur va san'atkor qalbidagi dard yo quvonchning ifodasi bo'lib maydonga keladi... Abdulla Ahmadning mazmunli hayoti va ijod yo'liga nazar tashlasak ana shu azaliy haqiqatiga yana bir karra amin bo'lamiz[4].

Jizzax adabiy muhitida o'zining nasriy asarlari bilan o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkor Abdulla Ahmad 1943-yilda Jizzax shahrida tug'ilgan. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi. "Mergan", "Zafarobodning zumrad tonglari", "Ma'rifatga baxshida umr", "Baxmal - yangi tashabbuslar manzili", "Yurakdagi ism", "Najot eshigi", "Dardisar", "Umid chirog'i", "Olislagan soyalar" kabi kitoblari chop etilgan.

Abdulla Ahmad nasriy asarlari orasida hikoyalari salmoqli o'rin egallaydi. Ijodkorning o'ziga xos uslubi va o'ziga yaqin davr ijodkorlari uslubi bilan mushtarak xususiyatlari epik asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, so'zni mahorat bilan tejab ishlatishi Abdulla Qahhor uslubiga yaqin tursa. Hajviy hikoyalarining realligi, inson xarakteridagi illatlarini achchiq kulgi bilan fosh etishi Said Ahmad uslubini yodga soladi. Ma'lumki, ijodkor uslubi, uning dunyoni anglashi, inson va hayot falsafasini o'ziga xos tarzda idrok etishi va idrok etgan hayotiy yoki xayoliy voqealarni badiiy bo'yoqlarda ifodalashida kuzatiladi. Shunga ko'ra, uslubning



41.	Malika Boltayeva. Nazar Eshonqul hikoyalarida yangicha tasvir va talqin	194
42.	Sherzod Rahmataliyev. Erkin Vohidov ijodini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish usullari	197
43.	Davlat Usanov. Qahramon ruhiyati qirralarini aks ettirishda ijodkor mahorati	200
44.	Dildora Toshmurodova. Adiba hikoyalari badiiyatida mahorat qirralari	203
45.	Azadaxan Urazova. Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida realiyalar	208
46.	Shohruh Kuyliyev. Said Ahmad hikoyalarida satira va yumor	210
47.	Zilola Abdusodiqova. "Qutadg'u bilig"da axloqiy madaniyat va yetuk insonni kamolga yetkazish masalalari	212
48.	Feruza Parmonova. Tilshunoslikda epitetning o'rganilishi	217
49.	Nigora Shuxratjonova. Pandnoma asarlar an'anasi hamda ularning adabiyotshunoslikda o'rganilishi	219
50.	Muborak Salohiddinova. Adabiy jarayon va xotiralar turkumi	226
51.	Azadaxan Urazova. "Momo yer..." dan kelgan mujda	229
52.	Narzulla Immatov. "Gulshanul –asror" da olmoshlarning ifodalanishi	232
53.	Umriniso Radjabova. Romanda bosh qahramon yaratish mahorati	235
54.	Mahliyo Mamitova. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil	239
55.	Dildora Xasanova. Abdulla Ahmad nasriy asarlarida xarakter yaratish mahorati	244
56.	Mohira Ankabayeva. Huvaydo she'riyatida lirik qahramon masalasi	249
57.	Soxiba Xamroyeva. "Jaziramadagi odamlar" romanida ayol obrazi tasviri	254
58.	Abror O'rolov. "Alkimyogar" romanida inson taqdiri badiiy talqini	258
59.	Maftuna Abdumajidova. "Ta'viz ul-oshiqin" devonidagi musammatlarning mavzu ko'lam, shakl va mazmun muvofiqligi	261
60.	Muhlisa Pardaboyeva. Said Ahmad asarlarida frazeologizmlarning qo'llanilishi	268
61.	Gulnoza Abdullayeva. O'tkir Hoshimov ijodida folklorning o'rni	272
62.	Rustam Mardiyev. Boqiy haqiqat va badiiyat talqini	275
63.	Sitora Yo'ldosheva. Xurshid Do'stmuhammad hikoyalari xususida	279
64.	Shahnoza Mavlanova. Jahon adabiyotida bola obrazi talqinlari	282
65.	Fotima Aliyeva. Omina Shenlik o'g'lining "Ishqqa Yengilmayman" asarida ikki ayol – ikki dunyo timsollari	285
66.	Muhammadqodir Toshpo'latov. Behzod Fazliddin lirikasida vaqt obrazi poetikasi	288
67.	Dildora Qarshiboyeva. O'zbek she'riyatida sonet janrining paydo bo'lishi va uning genezisi	294



“BIZ SALAFLAR IZDOSHLARIMIZ”

mavzusiga bag‘ishlangan Ilmiy-amaliy anjuman materiallari

(2-kitob, 1,3,4,5 shu’ba)

Muharrir: N.Soatova
Musahhih: D.Salimova
Sahifalovchi: G‘.Israilov

Nashriyot litsenziyasi №AI 242, 04.07.2013-y.
Ofset qog‘ozi. Bosishga ruxsat etildi 09.02.2023.
Formati 60x84 1/16. Garnitura «Times New Roman».
Bosma taboq 67.0 Adadi 100. nusxa. Buyurtma №12.

Manzil: 130100. Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sharof Rashidov ko‘chasi, 4-uy

Bog‘lanish: +99890 311 3555, +99899 553 0760

